


### Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-iyunida 991 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,5 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar%), sanoat tarmog'ida (21,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (19,5 %), savdo sohasida (17,2), qurilishda tarmog'ida (12,9 %), yashash va ovqatlanishda (11,1 %), tashish va saqlashda (3,5 %) tashkil etilgan.

#### 2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




**2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida 27,5 birlikda, Navoiy shaxarida 19,0 birlikda, Karmana tumanida 16,0 birlikda, Navbaxor tumanida 13,8 birlikda, Qiziltepa tumanida 12,5 birlikda, Konimex tumanida 12,2 birlikda, Nurato tumanida 11,7 birlikda, Xatirchi tumanida 11,2 va Uchquduq tumanida 10,9 birlikda birlikda, bo'lib o'rtacha ko'rsatkich 10-13 birlik oralig'ida Tomdi, Navoiy shaxarida, Karmana Navbaxor, Qiziltepa, Konimex, Nurato, Xatirchi va Uchquduq shaxar va tumanlarida aniqlandi. Zarafshon shaxrida 6,4 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.


### **Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**



2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 10,8 birlikda bo'lib, 2017 yilda 11,8 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 13,3 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 2,5 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 31,2 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 38,9 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

### **Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**



**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi  
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>12,9</b>	<b>62,1</b>	<b>62,7</b>
Navoiy shaxri	3,0	81,0	25,6
Zarafshon shaxri	74,0	7,9	67,8
tumanlar:			
Karmana tuman	43,9	85,4	69,4
Konimex tuman	100,0	100,0	99,0
Qiziltepa tuman	73,0	93,6	97,7
Navbaxor tuman	68,8	100,0	99,2
Nurato tuman	98,3	100,0	99,4
Tomdi tuman	100,0	100,0	98,7
Uchquduq tuman	100,0	100,0	98,1
Xatirchi tuman	76,1	95,3	99,4

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Konimex , Tomdi , Uchquduq tumanlari (100,0 %), Nurato (98.3 %), va Xatirchi (60,8 %) tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Konimex, Navbaxor, Nurato, Tomdi, Uchquduq (100 %), Xatirchi (95,3 %), Qiziltepa (93,6 %) va Karmana (55,4 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Xatirchi va Nurato (99,4 %), Navbaxor (99,2 %), Konimex (99,0 %), Tomdi (98,7 %), Uchquduq (98,1 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1379,0 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 12,9 %) yoki 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 103,4 %ni tashkil qildi;
- 584,4 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 56,0 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 13,3 %ni tashkil qildi;
- 539,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 62,1 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 102,8 %ni tashkil qildi;
- 1097,8 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyatda jami xizmatlar xajmining 62,7 %), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 2,4 %ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 92,7 % yoki 2280,5 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 2,6 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 26,8 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 18,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 33,8 mln. AQSh dollariga yoki 20,8 %ga kam;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 4,2 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 41,6 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 2,4 %ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 84,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

### **Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)**




## 2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana (390,7 mlrd.so'm), Navoiy shaxar 365,4 mlrd.so'm) va Qiziltepa (225,4 mlrd.so'm) shaxar va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Tomdi (14,1 mlrd.so'm) va Konimex (28,3 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (617,2 mlrd.so'm), Karmana (377,2 mlrd.so'm), Qiziltepa (290,0 mlrd.so'm), Xatirchi (283,2 mlrd.so'm) va Zarafshon shaxri (204,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur`ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Xatirchi (206,5 mlrd.so'm), Navoiy shaxri (184,7 mlrd.so'm), Qiziltepa (169,5 mlrd.so'm), Karmana (163,6 mlrd.so'm) va Navbaxor (114,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 27 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 48,1 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 29,6 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilish sohasida-66,7, savdo sohasida – 50 % va 50 %, xizmatlar sohasida – 37,5 % va 37,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligida 66,7 % va 16,7 %, sanoatda – 33,3 % va 33,3 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 33,3 %, qurilishda – 33,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligida – 16,7 %, xizmatlarda – 25,0 % %ni tashkil qildi.

### **Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II–chorak uchun, %**



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 100 % sanoat korxonalari, 87,5 % – savdo, 66,7 % – xizmatlar, 100 % – qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirlari natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.